

**MAHALLIY BYUDJETLARNI PROGNOZLASHTIRISHNING  
ILMIY-USLUBIY ASOSLARI**

*Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti mustaqil tadqiqotchisi  
PhD Ergashov Jamshid Ashurovich*

**Annotasiya:** Maqolada iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallashtirish sharoitida mahalliy byudjet daromadlari bazasini kengaytirish va mahalliy soliqlarni hisoblash mexanizmini takomillashtirish masalalari, hozirgi kundagi holati va boshqaruvda joriy etishning xorij tajribasi chuqur tahlil qilib o'rganilgan. Mahalliy byudjet daromadlarining konseptual asoslarini chuqur o'rganish va ularning barqarorligini ta'minlash bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqish zarurligi asoslandi. Soliqlarning mahalliy byudjetlar daromadlarini shakllantirishdagi ahamiyati va mahalliy byudjet daromadlarini oshirish hamda mahalliy soliqlar ro'yxatini kengaytirish yuzasidan amaliy taklif va tavsiyalar taklif etildi.

**Kalit so'zlar:** byudjet salohiyati, byudjetlararo transfert, mahalliy byudjet, mahalliy byudjetlar daromadlari, mahalliy byudjetlar xarajatlari, mahalliy soliqlar, soliqli daromadlar, moliyaviy mustaqillik, mahalliy boshqaruv.

**Аннотация:** В статье в условиях экономического развития и либерализации углубленно исследуются вопросы расширения доходной базы местных бюджетов и совершенствования механизма исчисления местных налогов, современная ситуация и зарубежный опыт внедрения в управление. Обоснована необходимость глубокого изучения понятийных основ доходов местных бюджетов и разработки практических рекомендаций по обеспечению их устойчивости. Были предложены практические предложения и рекомендации относительно значения налогов в формировании доходов местных бюджетов и увеличения доходов местных бюджетов и расширения перечня местных налогов.

**Ключевые слова:** бюджетный потенциал, межбюджетный трансферт, местный бюджет, доходы местного бюджета, расходы местного бюджета, местные налоги, налогооблагаемый доход, финансовая самостоятельность, местная администрация.

**Abstract:** In the article, in the conditions of economic development and liberalization, the issues of expanding the base of local budget revenues and improving the mechanism of local tax calculation, the current situation and the foreign experience of implementation in management are studied in depth. The need for a deep study of the conceptual basis of local budget revenues and the development of practical recommendations to ensure their stability was justified. Practical proposals and recommendations were offered regarding the importance of taxes in the formation of

local budget revenues and the increase of local budget revenues and the expansion of the list of local taxes.

**Keywords:** budget potential, inter-budget transfer, local budget, local budget revenues, local budget expenses, local taxes, taxable income, financial independence, local administration.

**Kirish:** Jahonda global miqyosdagi integratsiya va raqobatlashuvning kuchayishi sharoitida davlat byudjetini prognozlashtirish uslubiyotini takomillashtirishga doir ilmiy-tadqiqotlarning ahamiyati oshib bormoqda. Daromadlarni prognozlash jarayonini bashorat qilish va sifatli prognozlash, eksponensial tekislash va yagona tenglama regressiya prognozi, makroiqtisodiy daromadlarni prognozlashda xarajatlarni prognozlash, o‘rta muddatli byudjetni rejalashtirish, natijaga yo‘naltirilgan byudjetlashtirish, dasturiy-maqsadli usulda byudjetni rejalashtirish uslubiyotini takomillashtirish, davlat byudjeti proqnoz xatoliklarining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishga ta’siri bo‘yicha olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlar bu boradagi ustuvor yo‘nalishlardan hisoblanadi.

### **Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.**

Mamlakatimiz iqtisodchi olimlari tomonidan mahalliy byudjet daromadlarini shakllantirishda soliqlarning o‘rni va ahamiyatini oshirish jarayonlari tadqiq etilgan. Jumladan, A.Mamanazarov tadqiqot ishi mahalliy byudjetlarni barqarorlashtirishda soliqlarning rolini oshirish[1].

H.Qobulov hududiy iqtisodiyot va mahalliy byudjetlar imkoniyatlarini oshirish[2].

A.Xayriddinov mahalliy byudjetlar daromad bazalarining barqarorligini ta’minalash yo‘llarini[3].

A. Burxanov va X.Qurbanovlar mahalliy byudjetlar daromadini oshirish, ularning barqarorligini ta’minalash choratadbirlarini amalga oshirish bo‘yicha amaliy tavsiyalarni ishlab chiqish hamda keng qo‘llash orqali ushbu masalaga tizimli yondashish lozimligini qayd etgan[4].

N.Xaydarov fikricha mahalliy byudjetlarning daromad manbalarini ko‘paytirish va viloyatlarda yangi ish o‘rinlarini yaratish uchun xorjiy investorlarni jalg etishni rag‘batlantirish zarur. Buning uchun mamlakat bo‘yicha xorijiy investorlar qanday turdagи tadbirkorlik va tijorat faoliyati bilan shug‘ullana olmaydigan soha va tarmoqlar ro‘yxati ishlab chiqilib, qolgan barcha soha va tarmoqlarga yashil yo‘l borligi ko‘rsatilish lozim[5].

Rus olimlaridan Yu.Tumanskaya fikricha mahalliy o‘zini o‘zi boshqarish organlarining rolini kuchaytirish va mahalliy ahamiyatga molik muammolarni hal etish samaradorligini oshirish zarurati mahalliy byudjetlarga daromadlarni shakllantirish

tizimini ham byudjetni boshqarish nuqtai nazaridan, ham hududiy daromadlar bazasini baholashning ishonchliligi nuqtai nazaridan takomillashtirishni taklif etadi[6].

V.Marxaeva mahalliy byudjetlarning daromadlar bazasini real mustahkamlash, ularning moliyaviy-iqtisodiy bazasini kengaytirish, byudjet federalizmi prinsiplarini amalga oshirish asosida byudjetlararo munosabatlarni takomillashtirish zarurligini ta'kidlaydi[7].

S.Mishina mahalliy byudjetlarning daromadlari va xarajatlarini shakllantirishning umumiy prinsiplari byudjet tizimini shakllantirish tamoyillariga hamda davlat va mahalliy hokimiyat organlarining iqtisodiy tizimda bajaradigan roliga asoslanishini qayd etadi[8].

Z.Ro'ziev mahalliy byudjet daromadlarini shakllantirish va ulardan foydalanish samaradorligini oshirish[9].

Yuqoridagi iqtisodchilar tomonidan ilgari surilayotgan fikr mulohazalarda mahalliy byudjetlar daromadlarini shakllantirish va barqarorligini ta'minlashning amaldagi holati tadqiq etilgan. Shu o'rinda respublika soliqlaridan ajratmalar hamda yuqori byudjetdan quyi byudjetga berilayotgan moliyaviy yordamlar ajratish mexanizmini ham qo'shgan holda tadqiq etish lozim.

### Tahlil va natijalar

Davlatning byudjet tizimining birlamchi asosini rejalashtirish hisoblanadi. Rejalashtirish o'z navbatida tarkibiy jihatdan daromadlar va xarajatlarni rejalashtirishni qamrab oladi. Byudjet tizimi byudjetlarining daromadlari va xarajatlarini rejalashtirish garchi, ular mazmunan pul mablag'larining harakatlarini rejalashtirishga xizmat qilsada, ularning har birining o'ziga xos xususiyatli jihatlari mavjuddir. Aslini olganda fikrimizcha, byudjetning daromadlarini rejalashtirish undan qilinadigan xarajatlarning moliyaviy manbasini aniqlashga xizmat qiladi, shu jihatdan moliyaviy resurslarni qayta taqsimlash asosida ularning ma'lum bir qismini jamiyat manfaatlariga mos ravishda qayta taqsimlashni amalga oshiradi, pul oqimlarining harakatini ta'minlaydi. Davlat o'zining iqtisodiy funksiyasini bajarish maqsadida markazlashtirilgan pul fondlari shaklidagi davlat byudjeti orqali milliy iqtisodiyotni bir maromda boshqarish, ijtimoiy muammolarni hal etish uchun unga zarur bo'ladigan moliyaviy mablag'larga ega bo'lishning muhim vositasi sifatida tashkil qilingan byudjet tizimi byudjetlarini shakllantirishga iqtisodiy zaruriyat tug'iladi. Bu iqtisodiy zaruriyat esa turli darajadagi (davlat, mahalliy, munitsial) byudjetlarni taqozo etadi.

Mantiqiy va uslubiy jihatdan olganda mahalliy byudjetlarni prognozlashtirishning mohiyatini anglash uchun avvalo mahalliy byudjetning o'zining ijtimoiy-iqtisodiy mohiyatini aniqlab olish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz. Aksariyat iqtisodiy adabiyotlar, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Byudjet kodeksiga muvofiq, O'zbekistonda Davlat byudjeti O'zbekiston Respublikasining respublika byudjeti hamda Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjeti, viloyatlar va Toshkent shahar

mahalliy byudjetlaridan, o‘z navbatida byudjet tizimi byudjetlari esa, O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti, davlat maqsadli jamg‘armalari byudjetlari va byudjet tashkilotlarining byudjetdan tashqari jamg‘armalaridan tashkil topadi. Mazkur Kodeksning 3-moddasida belgilab qo‘yilganidek, “O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti - davlatning davlat vazifalari va funksiyalarini moliyaviy jihatdan ta’minlash uchun mo‘ljallangan markazlashtirilgan pul jamg‘armasidir”<sup>1</sup> deb belgilab qo‘yilgan bo‘lsada, ammo, mahalliy byudjetga aynan ta’rif keltirilmagan. Biroq, ushbu moddada shuningdek, byudjet jarayonining mazmuni keltirilgan holda, uni “byudjet tizimi byudjetlarini shakllantirish, tuzish, ko‘rib chiqish, qabul qilish, tasdiqlash va ijro etish, ularning shakllantirilishini, tuzilishini hamda ijrosini nazorat qilish, byudjet tizimi byudjetlarining ijrosi to‘g‘risidagi hisobotlarni tayyorlash va tasdiqlash, shuningdek ular o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar jarayoni”<sup>2</sup> sifatida tavsiflangan. Keltirilgan mazkur ikki ta’rifning mazmuni esa quyi darajadagi davlatning pul fondlari sifatida amal qilayotgan mahalliy byudjetlarning xususiyatini ko‘rish mumkin. Xuddi Davlat byujdeti singari mahalliy byudjetlar ham davlatning davlat vazifalari va funksiyalarini moliyaviy jihatdan ta’minlash uchun mo‘ljallangan bo‘ladi, o‘z navbatida mahalliy byudjetlar Respublikamizda byudjet tizimining byudjeti sifatida shakllantirish, tuzish, ko‘rib chiqish, qabul qilish, tasdiqlash va ijro etish bosqichlarini qamrab oladi.

I.Misylyeva fikriga ko‘ra, “davlat byudjeti – bu davlatning asosiy moliyaviy rejasi bo‘lib, unda byudjet pul munosabatlari tizimi sifatida miqdoriy ifodalanadi, o‘z navbatida, aynan byudjet rejasi – mamlakatning eng muhim moliyaviy hujjati tuziladi, ko‘rib chiqiladi, tasdiqlanadi va ijro etiladi. U asosiy markazlashtirilgan pul mablag‘lari jamg‘armasini shakllantirish, taqsimlash va ulardan foydalanish bo‘yicha iqtisodiy munosabatlarni aks ettiradi.<sup>3</sup> O‘zbek olimi prof. T.Malikovning ta’riflashicha, “Mamlakatning asosiy moliyaviy rejasi ko‘rinishida qonuniy rasmiylashtirilgan, davlat pul fondlarini yaratish (shakllantirish) va ulardan foydalanish borasidagi iqtisodiy (molivayi) munosabatlar majmui davlat byudjeti deyiladi”<sup>4</sup>. Bu keltirilgan ikkita ta’rifning mohiyatiga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, davlat byudjetining davlatning muhim moliyaviy rejasi va yirik pul fondi sifatidagi muhim iqtisodiy-moliyaviy va ijtimoiy xususiyati ko‘rsatib o‘tilgan bo‘lsa, qonun hujjati bo‘lgan Byudjet kodeksidagi yuqorida keltirilgan davlat byudjetining ta’rifida ham aynan uning davlatning pul fondi ekanligi tavsiflangan.

Ammo, O‘zbekistondagi amalda bo‘lgan qonun hujjatlarida mahalliy byudjetlarning mohiyatini ohib beradigan normalar berilmagan, shu boisdan mahalliy

<sup>1</sup> <https://lex.uz/acts/2304138>. Ўзбекистон Республикасининг Бюджет кодекси. 3-моддаси.

<sup>2</sup> <https://lex.uz/acts/2304138>. Ўзбекистон Республикасининг Бюджет кодекси. 3-моддаси.

<sup>3</sup> Мисльева И.М. Государственные и муниципальные финансы: Учебник. Изд. 2-е, перераб. и доп. — М: ИНФРА-М, 2013. - 360, с. 100

<sup>4</sup> Маликов Т.С., Олимжонов О.О. Молия. Дарслик / Тошкент Молия институти. – Тошкент: 2019. 386-б.

byudjetlar Davlat byudjeti tizimi tarkibida bo‘lganligi sababli biz uning mohiyatini Davlat byudjetining mohiyatidan keltirib chiqarishga harakat qilamiz. Avvalo, mahalliy byudjetga berilgan ayrim iqtisodchi olimlarning ta’riflarini tahlil qiladigan bo‘lsak, A.A.Shernaev, N.E.Jiyanovalarning fikricha, “mahalliy byudjet – Davlat byudjeti ning daromad manbalari va ulardan tushumlarni, shuningdek, xarajat yo‘nalishlari va moliya yili mobaynida aniq maqsadlar uchun ajratilgan mablag‘lar miqdorini nazarda tutuvchi tegishli viloyat, tuman, shaharning pul mablag‘lari jamg‘armasidan iborat qismidir.<sup>5</sup> O‘z navbatida prof. T.Malikovning ta’rif berishicha esa, “mahalliy byudjet – Davlat byudjetining tegishli viloyat, tuman, shahar pul mablag‘lari fondini tashkil etuvchi bir qismi bo‘lib, unda daromadlar manbalari va ulardan tushumlar miqdori, shuningdek moliya yili mobaynida aniq maqsadlar uchun ajratiladigan mablag‘lar sarfi yo‘nalishlari va miqdori nazarda tutiladi”<sup>6</sup>.

“Qomus.info/encyclopedia” milliy-ilmiy axborot bazasida keltirilgan ta’rifga ko‘ra, “mahalliy byudjetlar-davlat byudjetining tegishli viloyat, tuman, shahar pul mablag‘lari jamg‘armasini tashkil etuvchi bir qismi. Mahalliy byudjetlarda daromadlar manbalari va ulardan tushumlar miqdori, shuningdek, moliya yili mobaynida aniq maqsadlar uchun ajratiladigan mablag‘lar sarfi yo‘nalishlari va miqdori nazarda tutiladi. Mahalliy byudjetlarning daromadlari mahalliy soliqlar va yig‘imlar hamda to‘lovlardan tashkil topadi. Mahalliy byudjetlarning mablag‘lari hududiy rivojlanishning moliyaviy manbalaridan biri hisoblanadi. Mahalliy byudjetlar har bir mamlakat davlat byudjetining ajralmas qismidir.”<sup>7</sup>

Agar, mahalliy byudjetlar bilan bog‘liq xorijlik va vatanimiz olimlarining boshqa fikrlarini tahlil qilganimizda, aksariyatining mazmuni yuqorida keltirilgan ta’riflarga o‘xshab ketadi, ya’ni ularda ham mahalliy byudjetlarni davlat byudjetining ajralmas qismi sifatida va davlatning moliyaviy majburiyatlarini bajarishga qaratilgan pul fondi ekanligi keltiriladi. Yuqorida keltirilgan polimikal ilmiy tahlilga asoslanib, biz ham mahalliy byudjetlarning xususiyatlarini ochib berishga harakat qilamiz.

**Birinchidan**, mahalliy byudjetlar bu davlatning moliyaviy rejasi hisoblanadi. Moliyaviy reja esa, “umumiyligi va oddiy ko‘rinishda, moliyaviy rejalarini tuzish va amalga oshirish jarayoni nazarda tutiladi. Moliyaviy rejani, xuddi uni ishlab chiqish, yaratish yoki tuzish jarayoni kabi moliyaviy ko‘rsatkichlarni ijodiy tahlil qilish, umumlashtirish va o‘zaro bog‘lash tizimi sifatida tushunish kerak.”<sup>8</sup> Moliyaviy rejalarini tuzish o‘z navbatida moliyaviy prognozlashtirishni taqozo etadi. Moliyaviy prognozlashtirishsiz esa moliyaviy rejalarini tuzish mukammal bo‘lmaydi. Mahalliy

<sup>5</sup> А.А.Шернаев, Н.Э.Жиянова Давлат молиясини бошқариш. 5A230601 – «Давлат молиясини бошқариш», 5A230604 «Халқаро молия» магистратура мутахассислари учун дарслар. – Т.: ТФИ, 2019. – 365 б.

<sup>6</sup> Маликов Т.С., Олимжонов О.О. Молия. Дарслар / Тошкент Молия институти. – Тошкент: 2019. 887-б.

<sup>7</sup> <https://qomus.info/encyclopedia/cat-m/mahalliy-byudjetlar-uz/>

<sup>8</sup> Маликов Т.С., Олимжонов О.О. Молия. Дарслар / Тошкент Молия институти. – Тошкент: 2019. 133-б.

byudjetlar moliyaviy reja xususiyatiga ega bo‘lishi, uning elementlari bo‘lgan: daromadlar, xarajatlarni prognozlashtirishni talab qiladi. Mahalliy byudjetlarning daromadlarni prognoz qilish esa o‘z navbatida boshqa omillarga bog‘liq bo‘lishi bilan birgalikda, uni taqozo etuvchi holatlar ham mavjud bo‘ladi. Biz bu jarayonni keyinroq ko‘rsatib o‘tamiz.

**Ikkinchidan**, mahalliy byudjetlar pul fondi hisoblanadi va shu xususiyati orqali u o‘zida moliyaviy mablag‘larni ifoda etadi. Bu moliyaviy mablag‘lar esa, davlatning funksiyasini bajarishni moliyaviy jihatdan ta‘minlanishiga xizmat qiladi. Bu yerda mahalliy byudjetlar davlatning iqtisodiy-ijtimoiy funksiyasini bajarishning muhim omili sifatida yuzaga chiqadi. Davlatning moliyaviy-ijtimoiy funksiyasini bajarish imkonimaksimal bo‘lishi yoki barchasini to‘liq bajarish imkonim cheklangan. Albatta bu pul fondining moliyaviy mablag‘lariga bog‘liq bo‘ladi. Bu o‘z navbatida moliyaviy mablag‘larning hajmining chamalashni amalga oshirib borish zarur bo‘ladi. Shu jihatdan olganda mahalliy byudjetlar davlat funksiyalarini amalga oshirish vositasidir.

**Uchinchidan**, mahalliy byudjetlar milliy daromadni qayta taqsimlam turishga xizmat qiladi. Mahalliy byudjetlar orqali milliy iqtisodiyotning tegishli hududi doirasida mamlakat miqyosida yaratilgan yalpi ichki mahsulotning bir qismini shu hududga taqsimlashni ta‘minlaydi. Bu yerda mahalliy byudejtlarning makro va mikro darajada taqsimlovchi moliyaviy instrument xususiyati yuzaga chiqadi. Mahalliy hududlar doirasidagi milliy iqtisodiy va moliyaviy siyosatni amalga oshirishda mahalliy byudjetlar muhim vositachi sifatida ishtirok etadi.

**To‘rtinchidan**, mahalliy byudjetlar mamlakat miqyosidagi pul resurslarining milliy iqtisodiyot manfaatlari nuqtai nazaridan optimal taqsimlanib turilishini ta‘minlaydi va shu orqali hududlarning turli xil rivojlanishi natijasida kelib chiqadigan moliyaviy taqchilliklarni muvofiqlashtirib turadi. Itqisodiy qonuniyatga ko‘ra, hududlarning bir tekisda rivojlanishi murakkab masala hisoblanadi. Hududlar miqyosidagi moliyaviy muammolar milliy doirada tus oladiki, bu davlat miqyosida yuzaga kelgan hududlarni moliyaviy barqarorligini ta‘minlash miqyosida markazlashgan pul fondi shaklidagi mahalliy byudjetlarga ehtiyoj tug‘iladi. Mahalliy byudjetlar bu yerda hududlar o‘rtasida moliyaviy resurslarni qayta taqsimlash omili sifatida mavjud bo‘ladi. Har bir hududning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi tabaqalashuvi mavjud bo‘lar ekan, har bir hududga tegishli mahalliy byudjetlarning daromadlarini prognoz qilish iqtisodiy zarur bo‘ladi.

**Beshinchidan**, mahalliy byudjetlar investitsion fond sifatida mavjud bo‘ladi. Hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishda investitsion loyihalarni moliyalashtirishda asosiy moliyaviy manba sifatida ishtirok etadi. Ayniqsa, hududlardagi aholi manfaatlariga xizmat qiluvchi ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lgan

loyihalarda mahalliy byudjetlarning roli oshib bormoqda. Mahalliy doirasidagi ijtimoiy-iqtisodiy muammolarning ijobiy hal etilishi mahalliy byudjetlarning moliyaviy barqarorligiga bog'liq bo'ladi. Agar, mahalliy byudjetlarda moliyaviy mablag'lar yetarli bo'lsa, mahalliy hokimiyatlarning muhim bo'lgan-hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish funksiyasining moliyaviy ko'rinishi sifatida yuzaga chiqadi. Shu jihatdan olganda mahalliy byudjetlar milliy iqtisodiyot darajasidagi va hududlarga daxldor bo'lgan davlat Dasturlarini amalga oshirishning moliyaviy imkoniyati ko'rinishida ham namoyan bo'ladi.

Prognoz qilish turlari juda ko'p. Chunki, aytib o'tganimizdek, tabiat va jamiyatdagi har qaysi jarayon va hodisalarda rivojlanish jarayoni davom etadiki, ularning kelgusidagi holatini bilishga intilish prognoz jarayoni orqali amalga oshiriladi. Prognoz tushunchasi va uning mohiyatini o'rganish maqsadida ularni ma'lum bir mezonlar asosida guruhlarga ajratish mumkin. Shu jihatdan ularni ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni qamrab olishi; ko'lami va funksional belgisiga ko'ra guruhlanadi.

Bunday guruhash ular o'rtasidagi o'zaro aloqalarning yo'nalishlarini, ya'ni bir-biriga ta'sirini aniqlash imkoniyatini ham kuchaytiradi. Tabiiy-iqlim jarayonlarni qamrab oluvchi prognoz guruhiga kiruvchi prognoz turlari, ya'ni, masalan, resurslarni prognozlashtirish yer osti boyliklaridan foydalanganlik uchun soliq bo'yicha prognoz ko'rsatkichlarida muhim rol o'ynasa, demogarfik prognozlashtirish esa jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i va pensiya fondining mablag'larini prognoz qilish hamda real jismoniy shaxslar bo'yicha soliq to'lovchilarning dinamikasini hamda aholining daromad keltiruvchi va transfert oluvchilar o'rtasidagi nisbatni ko'rsatib beradi.

Umumiy xulosa qilib aytganda har qaysi davlatning qaysiki byudjet tuzilishi bir necha bosqichlaridan iborat bo'lgan davlatlarda mahalliy byudjet daromadlarini rejalashtirishda uning haqqoniyligi va hayotbaxshligini ta'minlashda uning daromadlar hajmini prognozlashtirish juda katta ahamiyatga ega. Bu esa, davlatning hududlardagi ijtimoiy-iqtisodiy siyosatining qanchalik amalga oshishida muhim sanaladi. Agar, mahalliy byudjet daromadlari to'g'ri prognoz qilinsa, albatta o'z navbatida mahalliy byudjetlardan qilinadigan xarajatlarning yo'nalishlarini to'g'ri aniqlash imkoniyati paydo bo'ladi. Shu jihatdan olganda mahalliy byudjetlarning daromad ko'rsatkichlarini maksimal darajada prognoz qilish o'z ahamiyatiga ega bo'lib, juda murakkab jarayonlarni qamrab oladi.

## **Xulosa va takliflar.**

Mahalliy byudjetlarning daromadlarini prognoz qilish va ularning daromad bazasini mustahkamlashda foydalanish uchun taklif etilgan o‘zaro integratsion bog‘liqlik mexanizmlarining samaradorligini ta’minlovchi uslubiy algoritmining moliya-soliq amaliyotiga keng joriy qilinishi mahalliy byudjetlarning daromadlarini prognoz qilish va ularning daromad bazasini mustahkamlashning o‘zaro uyg‘unligini ta’minlaydi, prognoz ko‘rsatkichlari bilan daromad manbalari o‘rtasida ilmiy asoslangan moliyaviy bog‘liqlik ta’minlanadi.

### **Adabiyotlar/Literatura/Reference:**

Ўзбекистон Республикаси Солиқ кодекси- Тош: F.Ғулом 2020.- 640 б.

Ўзбекистон Республикаси Давлат солиқ қўмитаси маълумотлари.

[www.solik.uz](http://www.solik.uz).

Ж.Эргашов “Маҳаллий бюджет даромадларини прогнозлаштириш ҳамда даромадларни ошириш масалалари” PhD илмий даражасини олиш учун диссертация автореферати. 2023 йилда ёзилган диссертацияси маълумотлари. Тошкент давлат иқтисодиёт университети- 22 б.

Маманазаров А.Б. Маҳаллий бюджетларни барқарорлаштиришда солиқларнинг ролини ошириш масалалари: и.ф.н. илмий даражасини олиш учун диссертация автореферати. - Тошкент, БМА, 2002. - 22 б.

Қобулов X.А. Ҳудудий иқтисодиёт ва маҳаллий бюджетлар имкониятларини ошириш йўналишлари. И.ф.н. илмий даражасини олиш учун ёзилган дис.автореферати. -Тошкент: БМА, 2006. - 21 б.

Рўзиев З.И. Маҳаллий бюджет даромадларини шакллантириш ва улардан фойдаланиш самарадорлигини ошириш. и.ф.н. илмий даражасини олиш учун ёзилган дис.автореферати. - Тошкент: БМА, 2011. - 21 б

Хайдидинов А.Б. Маҳаллий бюджетлар даромад базаларининг барқарорлигинитаъминлаш йўллари. И.ф.н. илмий даражасини олиш учун ёзилган дис.автореферати. -Тошкент: БМА, 2011. - 21 б

Бурханов А, Курбонов Х. “Ҳудудларда маҳаллий бюджетлар даромадлар манбанини кенгайтириш йўллари (Қашқадарё вилояти мисолида)”. “Иқтисодиёт ва инноватцон технологиялар” илмий электрон журнали. № 1, январь-февраль, 2018 йил.[www.iqtisodiyot.uz](http://www.iqtisodiyot.uz).

Хайдаров Н.Х. “Маҳаллий бюджетлар: муаммо ва инновatsion ечимлар”. “Ўзбекистон статистика ахборотномаси” илмий электрон журнали. 2020 йил, 2-сон.

Туманская Юлия Вячеславовна. “Формирование доходов местных бюджетов в условиях реформирования местного самоуправления”. Автореферат

диссертatsи на соискание ученой степени кандидата экономических наук. Иваново 2004. 20-стр.

Мархаева Виктория Владимировна. “Пути укрепления доходной базы местных бюджетов (например Республики Калмыкия)”. Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата экономических наук. Ростов-на-Дону 2004. 28-стр.

Мишина Светлана Вячеславовна. “Формирование доходов местных бюджетов в условиях модернизации межбюджетных отношений”. Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата экономических наук. Москва-2009.29-стр.

Кузнецова Ольга Сергеевна. “Регулирование налоговых источников местных бюджетов в российской федерации”. Автореферат диссертatsи на соискание ученой степени кандидата экономических наук. Москва 2013. 20-стр.

Найденова Т.А, Швецова И.Н. “Оценка формирования доходной базы местного бюджета (на материалах муниципального образования городского округа «Сыктывкар»)”. “Финансы и кредит”. 2014 г. 20-30 стр.

Афанасьева Елена Евгеньевна. “Проблемы формирования доходов местных бюджетов в условиях централизации финансовых ресурсов”. “Вестник Евразийской науки”. 2018, №3, Том 10. <https://esj.today/PDF/62ECVN318.pdf>.

Нормурзаев У. Тадбиркорларни қўллаб-қувватлашда солиқ имтиёзларини бериш орқали самарали усууллардан фойдаланиш йўллари //Экономика и образование. – 2021. – №. 3. – С. 91-95.

Normurzaev U. Amendments and additions to the tax code of the republic of uzbekistan on tax privileges in 2021. – 2021.